

XORAZM VOHASINING O‘ZLASHTIRILISHI VA DAVLATCHILIK ASOSLARINI SHAKLLANISHI BORASIDAGI BA’ZI BIR MULOHAZALAR

Eshchanova Surayyoxon

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm hududida tosh davridan temir asrigacha kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda davlatchilikning shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Xorazm, Kaltaminor, Suvyorgan, Tozabog‘yob, Amirobod, Quvisoy, Kozaliqir, “Katta Xorazm” muammosi, S.P. Tolstov, A.S. Sagdullayev, Yu.A. Rapoport, V.M. Masson, siyosiy markazlashuv.

ABSTRACT

This article analyzes the socio-economic processes and stages of statehood formation in the territory of Khorezm from the Stone Age to the Iron Age.

Keywords: Ancient Khorezm, Kaltaminor, Suvyorgan, Tozabog‘yob, Amirabad, Kuyisay, Kozaliky, the problem of "Great Khorezm", S.P. Tolstov, A.S. Sagdullayev, Yu.A. Rapoport, V.M. Masson, political centralization.

KIRISH

Xorazm hududi dunyo sivilizatsiyasi rivojida muhim markazlardan biri bo‘lib, uning qadimgi tarixi davlatchilikning shakllanish jarayonini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Xorazm hududida tosh davridan temir asrigacha kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va madaniyat uzviyligini tahlil qilish, shuningdek “Katta Xorazm” masalasiga ilmiy baho berishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha shakllantiriladi: Xorazm hududida davlatchilik mahalliy evolyutsion jarayonlar asosida shakllanganmi yoki tashqi migratsiya ta’sirlari bilanmi?

Tadqiqot metodologiyasi: Tarixiy-qiyosiy, arxeologik tipologik va manbashunoslik usullarini o‘z ichiga oladi. Arxeologik yodgorliklar va yozma manbalar (“Avesto”, antik mualliflar ma’lumotlari) tahlili asosida turli davrlarga oid madaniyatlar qiyosiy-tahliliy usul bilan o‘rganiladi.

Asosiy qism: Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Orol bo‘yi sarhadlarini o‘zlashtirish jarayoni janubi-sharqiy Ustyurt hududidan boshlangan, bu yerda topilgan tosh qurollar o‘rta paleolit davriga oidligi, so‘nggi paleolit davrida Amudaryoning Orolbo‘yi o‘zani hali vujudga kelmaganligi sababli ibtidoiy odamlar Sulton Uvays tog‘lari atroflariga kelib o‘rnashganligini (taxminan 30-25 ming yil

avval) ta'kidlaydilar. [1. 1981. – C. 46-54.]

So'nggi paleolit va mezolit davrida Xorazm vohasiga Ustyurt hududidan ovchilar guruhlarining kirib kelishi mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan. Vohada mazkur davrlarga oid uzoq vaqt mobaynida inson yashagan makonlar topilmagan. Mezolit davri yodgorliklari Qizilqum cho'lida kam, Lavlakon ko'li va Bokantov atrofida ko'proq o'rganilgan.[2. 2023. – B. 75-76]

Mazkur bosqich ibtidoiy jamoa tuzumiga xos iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar bilan xarakterlanadi. Bu davrda Xorazm hududida aholi harakati asosan tabiiy-geografik omillar bilan belgilangani kuzatiladi. Suv resurslarining mavjudligi hamda iqlim sharoitlari ibtidoiy jamoalarning joylashuvini belgilab bergan, qadimgi va o'rta tosh davrlarida doimiy aholi punktlarining shakllanmaganligi hududda hali murakkab ijtimoiy tuzilma mavjud bo'lmaganini ko'rsatadi. Bu bosqichni davlatchilikdan oldingi, ibtidoiy jamoa tuzumiga xos iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar hukmron bo'lgan davr sifatida baholash mumkin. Paleolit davrining oxiri va mezolit davrida ibtidoiy odamlar faqat o'zlari uchun qulay tabiiy sharoit shakllangan joylarda ko'chib yurishgan.

Neolit davriga kelib, O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy hududlarida ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan. Buni biz Joytun va Kaltaminor madaniyatlari misolida ko'rishimiz mumkin. V.M. Masson fikricha, neolit davrida ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish ikki usulda bo'lgan. Birinchisi, dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan Joytun madaniyati bo'lsa, ikkinchisi chorvachilikka asoslangan Kaltaminor madaniyatlaridir.[3. 1971. – C. 111] Kaltaminor madaniyatini yaratgan qabilalar janubiy Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi, Uzboy hududlarini o'zlashtirganlar. Alohida urug' a'zolariga tegishli makonlarda yog'och ustun va sinchlar asosida qurilgan hamda usti qamish bilan yopilgan kulbalar paydo bo'ladi. Ushbu madaniyatni o'rganish 1939-yilda S.P. Tolstov tomonidan Quyi Amudaryoning Oqchadaryo o'zani hududida Yonbosh-IV yodgorligining ochilishi bilan boshlangan. Hozirgi paytda Kaltaminor madaniyatiga oid mingdan ortiq turli xil manbalar aniqlangan.[4.1948. – C. 36-38]

Neolit davrida ovchilik va baliqchilik Kaltaminorliklarning asosiy mashg'uloti hisoblangan. Kaltaminor madaniyatiga xos yarim doimiy turar joylarning paydo bo'lishi ijtimoiy barqarorlashuvning dastlabki belgilaridan biri hisoblanadi. Biroq, xo'jalikning asosan ovchilik va baliqchilikka tayanishi ortiqcha mahsulot to'planishiga imkon bermagan. Shu bois bu davrda ijtimoiy tabaqalanish va markazlashgan boshqaruv shakllanmagan deb taxmin qilish mumkin.

Bronza davriga kelib o'zgargan tabiiy sharoit natijasida Xorazm vohasida ibtidoiy dehqonchilik vujudga keladi. Buni biz Suvyorgan, Tozabog'yob va

Amirobod madaniyatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Arxeologik yodgorliklar Amudaryoning qadimgi irmoqlaridan biri bo'lgan Suvyorgan atrofida topilib, ularni fanda "Suvyorgan" madaniyati deb nomlaydilar. Suvyorgan yodgorliklari mil.avv. XXI-XX asrlarga to'g'ri keladi. Topilgan qurollar shuni ko'rsatadiki, bu yerda yashagan qabilalar chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Suvyorgan madaniyatini yaratgan qabilalar daryo havzalari va soylari bo'ylab ko'chib yurganlar. Suvyorgan madaniyati bilan bir qatorda, mil.avv. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida Janubiy Oqchadaryo o'zani atroflarida Tozabog'yob madaniyati manzilgohlari paydo bo'lgan. Ular asosan, Jonbos va Ko'kcha tepaliklari oralig'ida, ayrimlari Jonbostepadan g'arbda va shimoliy-g'arbda joylashgan.[5. 1977. – C. 36]

Tozabog'yob davriga nisbatan yirik manzilgohlar so'nggi bronza davri (mil.avv IX-VIII asrlar) Amirobod madaniyatiga oid bo'lib, ularning o'rtasida masofa bir necha kilometrni tashkil etib yodgorliklarning asosiy qismi Janubiy Oqchadaryo havzasining g'arbiy qismida joylashgan. Amirobod madaniyatiga oid eng yirik manzilgoh Yakkaporson-2ning maydoni 2,5 gektardan iborat bo'lib, ayrim uy-joylar 2-3 ta yarim yerto'landi o'z ichiga oladi. [6. 2020. – B. 142]

Mil.avv. VIII asrning oxirlariga kelib Oqchadaryo o'zani suv ta'minotining to'xtab qolishi va Amudaryoning so'l sohili Dovdon o'zani suvi Sariqamish ko'liga kirib kelishining boshlanishi natijasida Amirobod madaniyati vakillari an'anaviy istiqomat hududlarini tark etib Sariqamishbo'yi dashtlariga ko'chib keladilar. Quyi Dovdon o'zani sohili dashtlarida aniqlangan Qang'qaqal'a 2 (Qang'a) bundan dalolat beradi. Mil.avv. VII-VI asrlarda Quyi Dovdon so'l sohili yerlarida Quysisoy madaniyatiga oid manzilgohlar va mozor qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Shu tariqa, Quyi Dovdon o'zanining 90 km uzunlikdagi tevarak-atrofi bosqichma-bosqich amirobodliklar, quysisoyliklar, ilk saklar va ko'zaliqirliklar tomonidan o'zlashtiriladi.

Mil.avv. VI asrdan boshlab, Quyi Amudaryo hududlariga yangi aholi guruhlari ko'chib kelishi natijasida Xorazm vohasining etnik geografiyasi o'zgaradi. Voha jamoalarining hududiy joylashishiga aholi sonining ko'payib borishi va sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi ta'sir qiladi. Ilk temir davridan boshlab Xorazm vohasi hududlarining keng o'zlashtirilishi, murakkab etnik jarayonlarning yuzaga kelishi, hududiy joylashishning turli shakllarining rivojlanishi, chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklari rivojlanish sur'atining kuchayishi, ixtisoslashgan binokorlik va hunarmandchilikning paydo bo'lishi kabi yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan belgilangan.

Tadqiqotchi M. Qurbanov o'z mongrafiyasida ushbu jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratadi: Birinchi tarixiy davr mil.avv. IX-VII asr birinchi yarmi oxirida Xorazm vohasiga tutash Amudaryo o'rta qismi so'l sohiliga janub aholisi

guruhlarining kelib joylashishi va ilk etnik makonning vujudga kelishi;

Ikkinchi tarixiy davr mil.avv. VII asr oxiri -VI asr oxirgi choragi. Odoytepaliklar tomonidan Amudaryo sohili hududlarining o'zlashtirilishi siyosati natijasida Toshsaqa hududida Xumbuztepa, Dovdon o'rta qismida Ko'zaliqir, Sariqamish havzasi g'arbiy hududida Qang'qaqal'a va Butentov yodgorliklari bunyod qilinishi;

Uchinchi tarixiy davr mil.avv. VI asr oxirgi choragi - V asr. Xorazm qadimgi dunyosi siyosiy tarixida o'zgarishlar yuz berdi. Xorazm ahamoniylar davlati tarkibiga qo'shib olinishi.[7. 2024. – B. 74]

Yu.A. Rapoport tomonidan Ko'zaliqir madaniyatining vujudga kelishiga "saklar-xorazmliklar"ning janubiy yuqori madaniy an'analar (me'morchilik va shaharsozlik) bilan bevosita "tanishib chiqish" va sivilizatsiya yutuqlaridan foydalanishga tabiiy intilishi poydevor bo'lgan, deb tushuntirishi munozaralidir.[8. 1998. – C. 29-30] Ko'zaliqir madaniyatining paydo bo'lishi janub bilan ya'ni Marg'iyona-Baqtriya me'morchiligi, hunarmandchiligi va moddiy madaniyati an'alarining Xorazm vohasida tadbiq etilishi bilan bog'liq.

Tadqiqotchi M. Matniyozov Gerodot, Markvart, Richard Fray, V. Tarn va S. P.Tolstovlarning nazariyalariga asoslanib, mil.avv. VII–IV asrlarda massagetlarning katta konfederatsiyasi mavjud bo'lib, unga beshta elat kirgan va VI asr o'rtalarida ular bir qancha qismlarga bo'linib ketgan. Shuningdek, Xorazmiylar ham o'sha ittifoqqa kirgan qadimiy elatlardan biridir. Ahamoniylar hukmronligiga qadar O'rta Osiyoda qudratli Xorazm davlati mavjud bo'lib, uning tarkibiga Sug'diyona (Zarafshon havzasi) va Xuroson (janubiy Turkmaniston, shimoliy-sharqiy Eron va g'arbiy Afg'oniston) kirgan. Xorazmliklar boshqargan bu ulkan harbiy-siyosiy uyushma "Katta Xorazm" deb atalgan edi. [9. 1996. – B. 75]

V.M. Masson "Xorazmda yirik sug'orish inshootlari mil.avv. VI-V asrlarda barpo etilgan deb, mil.avv. IX-VIII asrlarda Xorazmda sodda dehqonchilik-chorvachilik madaniyati (Amirobod madaniyati) rivoj topgan va mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab, Xorazm tuprog'ida o'sha davrga oid paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa devorlari topilmagan, turar joylar yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, sopol idishlar qo'lda yasalgan", deb ta'kidlagan [10. 1959. – C. 26]. E.V. Rtveladzening nazariyasiga ko'ra, Baqtriyaning shimoli-g'arbida joylashgan xorasmiylar qadimgi forslarning bosqini tahdidi tufayli Quyi Amudaryo yerlariga janubdan ko'chib kelganlar.[11. 2013. – C. 44] Bunday xulosalar Xorazm hududlarida davlatning juda erta vujudga kelganligini inkor etadi. "Katta Xorazm" haqidagi olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrni tahlil qilgan arxeolog A.S. Sagdullaev Xorazm davlati birlashmasining poytaxti deb taxmin qilinayotgan Ko'zaliqir qal'asi mudofaa devorlari bilan Baqtriyadagi qadimgi Qiziltepa devori

orasida o'xshashlik borligini isbotladi. Olim Xorazmning arxaik davr madaniyati ob'yektiv asosda O'rta Osiyoning janubidagi xalqlar yodgorliklariga yaqin deb ko'rsatadi.[12. 2024. – B. 156]

Arxeologik dalillarning qiyosiy tahlili Xorazm davlatchiligi shakllanish jarayonida tashqi ta'sirlar va mintaqaviy o'zaro aloqalar muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

Neolit davridan boshlab Janubiy Orolbo'yi madaniy-xo'jalik doirasida umumiy belgilarga ega turmush tarzi va moddiy madaniyat rivojlanadi. Kaltaminor va ilk Suvyorgan madaniyatlari sohiblari chorvachilikdan xabardor bo'lganlar, ammo o'rganilgan arxeologik materiallar ularning, asosan, o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllari to'g'risida dalolat beradi;

Bronza davrida Tozabog'yob madaniyatining shakllanishi Xorazm vohasiga kelgindi aholi guruhlarining yoyilishi natijasida yangi iqtisodiy va madaniy an'analarning tatbiq qilinishi bilan izohlanadi;

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli bronza davrida janubiy aholi vakillarining O'rta Osiyo shimoli-sharqiy hududlariga migratsiyalar amalga oshirilgan. Ushbu migratsiyalar so'nggi bronza davri va ilk temir asri boshlariga qadar davom etgan. Natijada janubiy jamoalarning a'zolari Xorazm hududlariga joylashganlar;

Xorazmda ilk davlatchilikning shakllanishi Ko'zaliqir madaniyati bilan bog'lanadi. Ko'zaliqir madaniyatining shakllanishi va rivojlanish jarayoni yuqori madaniy-xo'jalik doirasidan (Marg'iyona-Baqtriya) aholi guruhlarining migratsiyasi natijasida kelgindi va mahalliy aholining qorishishi, ilg'or madaniy an'analarning yoyilishi oqibatida sodir bo'lgan;

Ahamoniylar davriga qadar Xorazm vohasini birlashtirgan yirik markazlashgan davlat rivoj topmagan. Ilk davlatchilik alohida tumanlarda (Ko'zaliqir, Hazorasp) o'troq chorvachilik xo'jaligi asosida vujudga kelgani ehtimoldan xoli emas;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. – М.: Наука, 1981. – С. 46-54.
2. Abdullayev O., Bekmuhammad U. Xorazm tarixi. Monografiya. – Buxoro, Durdona, 2023. – B. 75-76.
3. Массон В.М. Поселение Джейтун (проблемы становления производящей

экономики). – Л.: Наука, 1971, №180. – С. 111.

4. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М., МГУ, 1948. – С. 36-38.

5. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья (II начало I тысячелетия до н. э.) – М., Наука, 1977. – С. 36.

6. Sagdullayev A.S. va boshqalar. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent, Universitet, 2020. – B. 142.

7. Qurbonov M.A. Xorazm qishloq jamoalari tarixi: Ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar (mil.avv. VI – milodiy IV asrlar). Monografiya. – Urganch, 2024. – B. 74.

8. Рапопорт Ю. Краткий очерк истории Хорезма в древности// Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ РАН, 1998. – С. 29-30.

9. Matniyozov M. Xorazm tarixi. I-jild. – Urganch, «Xorazm», 1996. – B. 75.

10. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. – М–Л., 1959. – С. 126.

11. Ртвеладзе Э.В. Государственное объединение «Большой Хорезм» -миф, созданный учеными или историческая реальность? – Ташкент, Узбекистан, 2013. – С. 44

12. O‘zbekiston tarixi. I-kitob: eng qadimgi davrdan XIV asr o‘rtalarigacha. (Muharrir A.S. Sagdullayev) – Toshkent: NIF MSh, 2024. – B. 156.